

BOBUR DAVLATCHILIGINI BEZAGAN FARMONLAR

Jo‘rayeva Zilola Mirobit Qizi

Arab filologiyasi 3 kurs talabasi

Rahimjanov Masrur Nugmanovich

Alfraganus universiteti Sharq

filologiyasi katta o‘qituvchisi (Phd)

ANNOTATSIYA. Har bir yurt sultoni tomonidan davlatchilik tarixida o‘nlab, yuzlab amr, farmonlar, farmoyishlar beriladi. Albatta, bu farmonlarning mazmun-mohiyatini, muhimligini inkor qilmagan holda umumdavlat, umummillat manfaatini ko‘zlagan, shu yurt tarixi va taraqqiyotida o‘z aksini qoldirgan davlat hujjatlari, mamlakat boshlig‘ining farmon-lari har davrda ham alohida ajralib turgan. Ushbu hol podshoh Zahiriddin Muxammad Boburga ham taalluqli.

АННОТАЦИЯ. За всю историю государственности султана каждой страны издаются десятки и сотни приказов, указов и распоряжений. Конечно, вне зависимости от содержания и сути этих указов, в России выделялись государственные документы, указы страны, обращенные ко всему государству и всему народу, и оставившие свое отражение в истории и развитии этой страны. каждой эпохи. Ушхол также относится к королю Захируддину Мухаммаду Бабуру.

ABSTRACT . Throughout the history of the statehood of the Sultan of each country, dozens and hundreds of orders, decrees and orders have been issued. Of course, regardless of the content and essence of these decrees, state documents stood out in Russia, decrees of the country, addressed to the entire state and all the people, and left their reflection in the history and development of this country. every era. Ushkhol also refers to King Zahiruddin Muhammad Babur.

Kalit so‘zlar: "Boburnoma", tarixiy dalil, tarix, Temuriylar saltanati, tasvir, muallif, Movarounnahr.

Ключевые слова: «Бобурнома», исторические свидетельства, история, династия Тимуридов, образ, автор, Мовароуннахр.

Key words: "Boburnoma", historical evidence, history, Timurid dynasty, image, author, Movarounnahr.

KIRISH. Asl maqsadga ko'chishdan oldin mavzuimizga asos bo'lgan satrlarni «Boburnoma» dan keltirsak. Bobur yozadi: «Burunroq niyat qilib erdimkim, Raana Sangaa kofirg'a zafar topsam, tangani musulmonlarg'a bag'ishlay. Tavba asnosida Darvesh Muhammad sor-bon bila Shayx Zayn tamg'a baxshishini yod berdilar. Dedimkim, yaxshi yod berdingiz, iligimizdagi vi-loyatda musulmonlarning tamg'asi baxshish bo'ldi. Munshiylarni tilab, buyurdimkim, bu ikki azimush-sha'n umurkim, voqi' bo'ldi, buning ixborig'a farmonlar bitgaylar. Shayx Zaynning inshosi bila farmonlar bitilib, jami' qalamravg'a yiborildi».

Boburning bunday qarorga kelishi uning umri-ning oxirrog'ida, aniqrog'i vafotidan ikki yil oldin sodir bo'lgan. 1528 yil voqealari. Boburning Hindiston bilan bog'liq yuksak orzusi - Amir Temur saltanatini qayta tiklash va uning hududini avvalgidek temuriylar tasarrufiga kiritish uchun jon-jahdi bilan kurash olib borayotgan vaqt edi. Ma'lumki, Boburning yuksak sarkardalik, harbiy mahorati, qolaversa lashkar bilan ishlashda qobiliyatli psixolog sifatida ish ko'rishi tufayli son jihatidan bir necha marta ko'p, jangovar fillar va mahalliy sharoitga moslashgan harbiy qurollar bilan ta'min-agan Ibrohim Lo'diyning yuz minglik armiyasi usti-ang'alaba qozongan. Shundan so'ng, Hindistondagi ko'pgina shahar, qishloq va o'lkalarga bosh bo'lgan rojalar, sarkardalar urushsiz qo'l ostidagi boshqaruvni Bobur saltanatiga topshirib, ortiqcha qon to'kish befoyda ekanligiga aqlari yetib, murosa bilan davlatchilik ishlarini davom ettirganlar.

Ammo, ularning orasida ham o'z yurti ozodligi va daxlsizligini ro'kach qilib, sharoitdan foydalanib o'z mulkini kengaytirishni maqsad etgan sarkardalar, rojalar ham bor edi. Shular dastlab Bobur saltanatini tan olishmagan, Raana Sangaa kabi e'ti-borli rojalar ko'pgina o'lka rojalarini birlashtirib, urushga hozirlik ko'radilar, Bobur tomonidan belgilangan yer, daromad soliqlarini to'lashdan bosh tortadilar.

Albatta, bu hol Bobur siyosatiga mutlaqo to'g'ri kelmagan va u ham o'z navbatida Hindistonda eng yirik sarkarda Ibrohim Lo'diyni tor-mor etgandan keyingi ikkinchi katta yurish - Hindiston sultoni -rojasi Raana Sangaaga qarshi jangga hozirlik ko'ra boshlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA . Boburning ushbu urushga qanday hozirlik ko'rgani, uning asl sabablari nimada edi, ushbu muhorabani katta g'alaba bilan yakunlaganligi haqida batafsil so'z yuritmaymiz, bu alohida katta tadqiqotni talab qiladigan mavzu. Bunda Bobur nima uchun aynan shu g'alabasidan so'ng farmon berib uni «AZIMUSH-ShA'N» deb ataganligiga e'tiborni qaratmokchimiz. Mazkur masalani kengroq yoritishga Bobur farmonining matni talaygina ma'lumot beradi. Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, Boburning bu farmonida g'olib podshohning g'alaba nashidasi, faxriyasi bor. Farmonda birinchi nav-batda islomiy ta'limot - Oллоhga ShUKR etish masalasi yuksak tarbiyaviy ohangda o'z ifodasini topgan. Bunda, Boburning astoydil shukr deyishga asosi bor edi. Axir, o'z yurtida, o'zining qondosh temuriyzodalarning yurtga egalik bois toj-taxt talashishlari, sarson-sargardonlikdan so'ng taqdir unga Hindistondek buyuk davlatni o'z tasarrufiga kiritishni nasib etdi, bu mamlakatning yirik shaharlari qariyb kurashsiz unga bo'ysundi. («...muvaffaqiyat qo'llari g'alaba nishonli bayroqlarimizni Dehli, Agra, Jo'npur, Xariyd, Bihar va boshqa o'lkalarda ko'tardi»), Shu bois, Bobur «har ne'matga biror shukr lozim va har shukrga uning ketidan biror ne'mat» degan hikmatnamo fikrni farmoniga kiritadi. Bemalol aytish mumkinki, Boburning bu fikri bugungi mustaqilligimizning har bir ne'mati, yutug'iga shukronalar qilishimiz lozimligiga ham asos beradi. Chunki, bugungi shukrimiz ortidan kelgusida «biror ne'mat»ning kelishi aniqligi ham tayin.

Bobur o'zining bu farmonida «shukr» mavzuiga yanada chuqurroq kirib boradi. Qalamravid bo'lgan zobitu askarlari, beku shahzodalar, ba'zan muloyim, gohida yakkash zodagon ayollarni insofga chaqirish, Hind o'lkasining diqqinafas iqlimiga chidam berish, Oллоh nasib ettirgan yuksak zafarlar shukronasi bois Bobur saltanatiga sadoqat bilan xizmat qilish ruhiyatini singdirishga harakat qiladi. Bobur

bu lahzada aniq tasavvur etganki, qo‘l ostidagilarga zulm, sitam, jazo va qistovlar o‘tkazish bilan ularni Hindistonda olib qolish mumkin emas. Shuning uchun Raana Sangaa ustidan g‘alaba qilish uchun faqat lashkar safini jipslashtirish, xiyonat, sotqinlik va ayniqsa qochqinlikka yo‘l bermaslikning yagona yo‘li ma’naviy ta’sir orqali ish ko‘rish deb biladi va «shukr» tushunchasiga yana urg‘u beradi: «Shukr shunday bir ne’mat muqobilida bo‘lsaki, dunyoda hech bir boylik undan buyukroq va oxiratda biror bir yaxshilik undan go‘zalroq bo‘lmasa».

«Zahiriddin Muxammad Bobur g‘oziy farmoni» Bobur saltanatining so‘nggi yillari haqida ancha mukammal ma’lumot beradi. Undan Bobur uchun Hindistonda naqadar mushkul sharoit vujudga kel-ganligini his qilamiz. Hind xalqi boburiylarga qarshi kurashga Raana Sangaaning ham katta tazyiqi, ham ular yuragidagi vatanparvarlik kayfiyatlarini junbushga keltirib, behisob lashkarlar to‘plagani bois jipslashganlari, bir necha rojalar va sultonlar muttahid bo‘lganligi Farmonda keltirilgan fakt-raqamlarda Raana Sangaaning yuksak tashkilotchiligini tan olgan Boburning rostbayonligi o‘z aksini topgan: («Mahmudxon Iskandarxon o‘g‘lining viloyat va qishlogi bo‘lmasa ham, sardorlik umidida taxminan o‘n ming suvoriy jam’ qilgan edi. Sog‘lomlik va omonlik vodiysidan uzoqlashganlarning hamma to‘plami, Hind qishlog‘i va viloyatida davom etib kelgan qoida bo‘yicha, hammasi bo‘lib, ikki lak bir ming» (ikki yuz bir ming kishi -HQ.) kishiga yetgan.

Biz muhtaram o‘quvchilarimizni mazkur jang tafsiloti bilan zeriktirib qo‘yishdan o‘zimizni tiygan holda ta’kidlamokchimizki, Bobur lashkarlarining Raana Sangaaning ikki yuz mingdan oshiq lashkariga qarshi olib borgan muhorabasi g‘alaba bilan yakun-lanadi. Bu urushning tafsilotlari tarixda, turli davrlarda turli xil tahlil etilgan. Biroq bir narsa muhimki, Zahiriddin Bobur ushbu muhorabani qanchalik qaqshatqich tarzda olib borgan bo‘lmasin, islom bayrog‘i va nizomini temuriylar saltanati yerlarida yanada barqarorligini ta’minlashga erishmagan bo‘lmasin, mag‘lub hindularni «kofirlar» deb atab unga «g‘oziylik» unvoni berilgan bo‘lmasin, podshoh Bobur o‘zining mazkur farmoni bilan Sharq tarixida misli ko‘rilmagan yuksak ma’naviy darajaga ega ekanligini ko‘rsatdi: agarchi bunda

hindlar unga qarshi dushmanona alfozda bo'lsa ham u ancha-dan beri orzu qilgan niyatini amalga oshiradi. Ya'ni o'zining qo'l ostidagi barcha nomusulmon bo'lgan millatlardan undiriladigan TAMG'A solig'ini bekor qiladi. Shu bois, Boburning Raana Sangaa ustidan g'olib kelishi bois hindlardan ham tamg'a solig'i bekor qilinadi. Bemalol aytish mumkinki, bu haqiqatda ham Bobur aytgandek, uning eng buyuk, mazmunan yuksak «azimush-sha'n», ya'ni inson sha'nini yuksaklikka ko'taruvchi farmon edi.

Ikkinchi tomondan, bu Boburning Hind lashkar-boshilariga emas, hind xalqiga ko'rsatgan baland himmatining belgisi ham bo'lgan. U Hindistondagi urf-odatlar, diniy qoidalar va xalq an'analariga ehtirom bilan yondoshish borasida ko'p fikr yuritgan. Masalan, uning o'g'li Humoyun mirzoga yozgan vasiyatida quyidagi satrlarni o'qiydiki, fikrimizga dalil bo'la oladi: «Ey farzand! Hindiston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taolo haqqi senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo'l. Xususan sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hindiston xalqining qalb ardog'i va bu viloyat ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog'lanadi...»

Agar Boburning bu farmoni boshida Olloh tomonidan berilgan rizq va imkoniyatlarga shukronalik bayon etish asos qilib olingan bo'lsa, asosiy qismida inson tarbiyasining yana bir jihati - Qur'onda va Hadisi sharifda qayta-qayta zikr etilgan NAFSNI TIYISHga bag'ishlanadi. Chunki, mazkur farmonning bosh g'oyasi va shoh Boburning maqsadi ham butun saltanati hududida may, sharob va insonni sarxush etuvchi ichimliklar va vositalarni man etish, hech qaerda, har qanday sharoitda uni iste'mol etmaslik farmoni edi, bu: «... Inson tabiati o'zining yaratilishi bo'yicha nafs lazzatlariga moyildir, zavq keltiruvchi yoqimli narsalarni tark etish Xudoning tavfiq berishiga va osmoniy ko'makka bogliq. Bashariy yomonlikka mayl etishdan uzoq emas».

Boburning bu farmoni mazmuniga kirishishdan oldin uning maydonga kelishi zaminiga bir nazar solsak. Boburning o'zi 23-24 yoshiga yetgunga qadar sharob iste'mol qilmagan va bu odatni u o'ziga betona bilgan. Biroq gemuriylar,

ayniqsa Husayn Boyqaro saroyidagi mayparastlik, uning o'g'illari Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzoning mehmondorchiligida qatnashgan Boburda umuman mayga rag'bat bo'lmaganligi («Kichiklikta bemayl edim, chog'ir (may, sharob - HQ.) nash'a va kayfiyatini bilmas edim. Otam gohikim chog'ir taklif qilsalar ham uzrlar aytib irtikob qilmas edim») alohida ta'kidlangan. Boburning iqroriga, bu yoshda sharob iste'mol qilsa ham birov unga qarshilik bildirmagan. Hirotning eng ko'rkam Bog'i Jahonoro ko'shkida Badiuzzamon mirzo tomonidan Bobur va uning safdoshlari sharafiga berilgan bazm tasviri «Boburnoma»da keltirilgan. Boburning yuqoridagi farmoni bilan bu tasvirning bevosita aloqasi bor. Bobur 47 yil umr kurgan. Hayotining 23 yiliga may ichmagan, vafotidan ikki yil oldin yuqoridagi farmon bo'is nafaqat o'zi, balki butun saltanatida sharob ichishni man etgan. Badiuzzamon mirzo bazmida Boburning may ichishga naqadar loqaydligi, beparvoligi, bu ishdan hazar qilishi, temuriyzodalarning mastlikka rujulari balandligini afsus bilan yozadi: «Badiuzzamon mirzo Muzaffar mirzo mehmondorlig'ini eshitib, Bog'i Jahonorda Muqavviyxonada majlis tartib qilib, meni tiladi».

U yuqoridagi farmonni berguniga qadar uch marta may ichmaslikka axd qiladi, ammo uni tark etishga irodasi yetmadi:

May tarkini qilgali parishondurmen,
Bilmon qilur ishimniyu hayrondurmen.
El barcha pushaymon bo'luru tavba qilur,
Men tavba qilibmenu pushaymondurmen.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, Bobur hududida mayni tark etish farmonini bergunga qadar o'zining ichki olamida katta qarama-qarshiliklar, ruhiy kurashlarni boshidan kechirgan. U nafaqat davr, balki butun insoniyat boshiga kulfat bo'lib yog'ilgan bu odatdan saklanishga chaqirgan. Ne hasratki, bu illat Bobur davridagina emas, hozir ham dunyoning katga muammosi bo'lib kelmoqda.

Shunga qaramasdan, Bobur o'zini yengadi, farmon kuchga kiradi. Biroq masalaning boshqa tomoni - nega farmon aynan Boburning Raana Sangaa bilan

bo'ladigan yirik muhorabasidan oldin berildi? Bu juda katta siyosiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik masala. Chunki, Bobur temuriy saltanatning yaxlitligini eng avvalo davlatchilikdagi tartib-intizom, sog'lom aql va hushyorlik zahirida ko'radi. U farmonning asosiy maqsadiga ko'chishdan oldin qo'l ostidagi bekdorlar, amirlari bilan psixologik tarbiya olib boradi, mayni tark etish kishi ruhiyatini poklashi qatori insonda irodani tarbiyalashi, dushmanga qarshi birlikka kuch berishi, qolaversa bu intilish shariat qonuniga rioya etish ham ekanligini uqtiradi: «... Insonlik taqozosi, podshohlar rasm-rusumi podshohlik lavozimi, mansabdorlar odati bo'yicha shoxdin tortib sipohiygacha go'zal yoshlar kunlarida shariat man qilgan ba'zi narsalarga va ayrim o'yin-kulgilarga ruju qilinardi. Bir qancha vaqtdan keyin pushaymonlik kunlari kelib, ularni bitta-bitta tark qilinardi va chin tavba bilan ularga qaytish eshigi yopilar edi».

Boburning mazkur farmonini diqqat bilan mutolaa qilar ekanmiz, unda «Boburnoma» muallifining yuksak ruhiy tug'yonlari, o'zining ichki ziddiyatlari bilan uzoq muddat tinmay kurash olib borganligini ko'ramiz. Ichkilikni tark etish Boburning bosh maqsadi bo'lsa-da, u ham o'sha jamiyatning bir fardi, gunohkor banda sifatida o'z irodasini yenga olmaganligi, bu muqaddas maqsadni ancha muddat paysalga solib kelganligini ochiq tan oladi. «Har ish vaqtiga bog'liq» deya o'zini tergap «parda ostiga bekinib yuzni ko'rsatmas edi» deb shohligiga qaramasdan jamiyat ahlini insofga chaqirish bois kasri nafsiga barham berganligini ko'ramiz: «... Gunoh va sarkashlik asbobining ildizidan qo'porib tashlab, tavba eshiklarini to'liq jiddiyat bilan qoqdik, tavfiq yo'llovchisi «Kimki astoydil eshik qoqsa, kiradi» mazmuniga muvofiq iqbol eshigini ochdi va bu urushni nafsga qarshilik ko'rsatishdan iborat bo'lgan zo'r urush bilan boshlashni buyurdi».

Mazkur matndagi bir-ikki o'ringa diqqatni tortamiz. Biz mumtoz adabiyotimiz durdonalarini mutolaa etar ekanmiz, birinchi galda bu manbalar bugungi yosh avlodni, umuman insonning tarbiyasi, axloqi, jamiyatga bo'lgan munosabatiga qanchalik foydasi tegishini o'ylashimiz, eng muhimi mutolaadan keyin biz Bobur singari o'zimizdagi qaysi illatdan mardlarcha xalos bo'lishga

intilishimizni nazarda tutishimiz kerak. Bobur farmonida «tavba eshiklarini to‘liq jiddiyat bilan qoqdik» demoqda. Demak, inson o‘zida mavjud nojo‘ya harakatlardan, jumladan mayparastlikdan ham havas bilan, mavsumiy tarzda xalos bo‘la olmaydi, unga barham berish uchun jid-diylik, iroda talab etiladi. Keyin, Bobur mayni tark etishni unga qarshi urush ochganligi bilan izohlamokda. Bu ham inson tabiatidagi har qanday nopok harakatni, o‘zining izzat nafsini sindirib, muttasil kurash va qat’iylilik bilan amalga oshirish lozimligini ta’kidlamokda. Shubhasiz, Boburning bu o‘giti bugungi yoshlarimizni giyohvandlik, aroq-xo‘rlik, diniy ekstrimizm, aqidaparastlik ko‘chalaridan yig‘ishtirib olishga, mustaqillikni ne’mat bilib, uni mustahkamlash sari asrlar osha bizga bitilgan bir chaqiriq, sirli maktubdir.

Bobur mazkur farmonda may va uning salbiy oqibatlarini jiddiy misollar bilan bayon etgan. Bu farmon Boburning o‘ziga ham shavq bergan, g‘ururlantirgan. Boburning bu farmoni butun Sharq davlatchilik tarixida birinchi voqea ekanligini uqtirgan («Ey rabbim, nafsilarimizni g‘ul qildik»ni ixlos tiliga keltirib, «Sening oldingda tavba qil-dim va men musulmonlarning birinchisiman» degan gapni dil lavhasida naqsh qildik»). Bu yangilik, hali hech bir saltanat boshlig‘ining xayoliga kelmagan, irodasi yetmagan bu jasoratni o‘zi amalga oshirganidan mamnunlik bildirgan. Bobur tarafdorlarining bir og‘izdan podshohlarining bu hukmiga sodiq qolishlari yana bir karra sarkarda Boburning qo‘l ostidagilar orasida naqadar yuksak ehtiromga egaligi, fuqaro, beklar o‘z podshohiga nechog‘li bo‘ysunganligini bildiradi. Bobur esa farmonida bu satrlarni juda yuksak g‘urur, iftixor va samimiyat bilan bayon etgan: «Zafar nishonli xodimlar mubo-rak hukm yuzasidan ko‘plik va ziynatda yuksak yulduzi-dek bo‘lgan, go‘zal majlisni bezab turgan oltin va kumushdan yasalgan may idish va qadahlar va boshqa asboblarni yerga urib... pora-pora qilib, har biri-ni miskin va bechoraga berdilar».

Bobur farmonidan kelib chiqadigan holatni ham yaxshi tasavvur etgan. «Ichkilikdan qochinglar, shoyadki najot topsanglar» degan jumla Bobur farmonining mazmuni, turmush mushkulliklarining yechim topishiga ichkilikni tark etish katta yordam berishini ang-latadiki, takror aytamiz, bu undov va ta’limot

bizning davrimizda ham juda muhim va ahamiyatlidir: «Bu orzu va bu osoyishtalik to‘la-to‘kis oxiriga yetgandan keyin, olam bo‘ysunishi lozim bo‘lgan farmon ijro sharafiga erishdiki, tinch saqlangan mamlakatda (Xudo ofat va xavflardan omon qilsin) mutlaqo hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, ichkilik yasamasin, sotmasin va olmasin, o‘zida saq-lamasin, eltmasin va keltirmasin: «Ichkilikdan qochinglar, shoyadki, najot topsanglar».

Mazkur farmondagi mana bu satrlar yakunlovchi bo‘lib, uning mundarijasini va Bobur maqsadini yanada yaqqolroq tasavvur etishimizga ko‘mak beradi. Unda saxovatmand Bobur, shariat qonuniyatini xalq manfaatiga yo‘naltirgan Bobur, barcha millat, elat, xalqlarga o‘z vatandoshlari qatori munosabatda bo‘lgan Boburning mafkurasi, qarashlari mavjud: «Bu g‘alabani (ya‘ni Raana Sangaa ustidan golib kelganligi - H.Q) shukronasi va chin tavbaning qabul darajasiga erishmogi (bunda may ichishni man etish farmoni nazarda tutilmoqda - H.Q.) ning sadaqasi uchun, podshohlikning baxshish daryosi jo‘sh urib, olami obodonligi va kishilik obro‘i bo‘lgan karam to‘lqinlarini paydo qildi: butun mamlakat bo‘ylab, o‘tgan sultonlardan qolib ketgan va daromadi haddan ortiq ko‘p bo‘lgan TAMG‘ANI, o‘zi ham shariat qoidalaridan tashqari bo‘lgani uchun musulmonlar ustidan olib tashlab, farmon sodir bo‘ldiki, «hech shahar, qishlok, yo‘l, ko‘cha, guzar va bandarlarda tamg‘a olmasinlar va undirmasinlar, ham bu hukmning qoidalariga o‘zgartish kirgizmasinlar:

«Kimki buni eshitgandan keyin o‘zgartirsa, gunohi o‘zgartiruvchilarga bo‘ladi».

Mazkur farmonning o‘zi ham boburiylar saltanatida davlat ishlarini yurgizish naqadar qonunlarga bo‘ysunganini, har bir chiqariladigan qonun, davlatchilikka oid turli darajadagi hujjatlarning ijrosi va natijaviy yakuni nazoratga olingani, uning omma orasida tatbik etilishi shartligi kabi tadbirlari tufayli o‘ta ahamiyatli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Albatta, Bobur boshqargan saltanatning g‘alabasi, muvaffaqiyati va el oldidagi obro‘si ham Amir Temur saltanatida asos solingan va Bobur davrida muvaffaqiyat bilan amalga tatbiq etilgan farmonlarga

ham bog‘liq bo‘lgan.

Boburning bu farmoni o‘sha zahotiyoq xalq tomonidan mamnuniyat bilan qabul kilingan. Farmonda keltirilishicha, «podshohning mehribonchiligiga sig‘ingan turk, tojik, arab, ajam, hindi, forsiy fuqaro va sipoh - butun millatlar, hamma inson toifalari bu mangu baxshishga suyanib, umid tutib, abadiylikka birikkan davlatimiz duosiga mashg‘ul bo‘lsinlar va bu hukmlar ijrosidan chiqmasinlar va burilmasinlar, farmonga muvofiq ish olib borsinlar».

XULOSA

Zahiriddin Boburning bu ikki farmoni bizning davrimiz-da ham qimmatini yo‘qotgan emas. Bu farmonlarga 500 yildan ortiq vaqt o‘tdi. Pekin bugun ham dunyo xalqlari mehr, shafqat va saxovatga muhtojligi, soliqlar adolatli bo‘lishi lozimligi, jamiyatni ichkilikka mukkasidan ketgan kishilardan asrash, ularni insofga chaqirish davom etayotgan ekan, Boburning «ikki azimmush-sha’n» farmoni shu illatlar-dan xalos etish uchun xizmat qilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Bobur" O‘zME. B-harfi Birinchi jil. Toshkent, 2000-yil
2. Lebedeva T. I., O neissledovannykh pogrebeniyakh Guri Amir //Arkheologiya, istoriya i kul'tura Sredney Azii. Tashkent, 2002, s.68 O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Khafiz-i Tanysh Bukhari. Sharaf -name-yi shakhi (Kniga shakhskey slavy). Nauka. 1983.
4. The Baburnama in English.Vol.2. London, 1922, p.799.
5. Mansura Haider, Relations of Abdullah Khan Uzbek with Akbar // Cahiers du Monde russe et soviétique, Vol. 23, No. 3/4 (Jul. — Dec., 1982), p. 313
6. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>

7. Bobur. Tanlangan asarlar. T.: 1958; Bobur. Asarlar. Uch jildlik.-T.: Fan, 1965-66; Bobur. Boburnoma. -T.: 1960, 1989; Bobur. Muxtasar. Toshkent, 1971.
8. Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017. – B.132.
9. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
10. Qoraev T. Adabiy taxalluslar haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1967. – №1. – B.54-58.
11. Turdiyeva, Y. The Phenomenon OF Artistic Style in Uzbek Literature. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 6(12), 22-23.
12. Жураева, М. А. (2013). Некоторые особенности склонения имен в грамматическом комментарии Абдурахмана Джами «Шарх мулла». *Вестник Челябинского государственного университета*, (23 (314)), 121-125.
13. Pardaev, U., & MANGIR, Ö. Ü. M. (2022). Türkiye Türkçesi İle Özbek Türkçesinde Onay ve Ret İfadeleri.
14. Султан Салим в романе Искандера Палы "Шах и Султан". (2025). *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 3(10/S), 301-305. <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp301-305>
15. Toshmatova, S. (2023). Recommendations on Poetic Translation From Uzbek Into English Language. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 19, 146-149.
16. Mahmudova, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE CREATOR IN THE STORIES OF SHUKUR KHOLMIRZAEV.
17. Toshtemirovna, M. G. (2024). A Comparative-typological Study of the Number Category in Uzbek and English Languages. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 8-9.